

SHE'RIY NUTQDA TOVUSHLAR GARMONIYASI

Matyakupov Sa'dulla,*Nukus davlat pedagogika instituti,**filologiya fanlari doktori, dotsent.*sadulla.yoqub@gmail.com**DOI:** <https://doi.org/10.5281/zenodo.18925115>

Annotasiya. Maqolada she'riyatda dialog va monolog tabiati, badiiy nutq shakllarining she'r poetik strukturasi ta'siri masalasi nazariy umumlashtiriladi. Muallif – matn – kitobxon munosabati lirikada badiiy kommunikatsiyani vujudga keltirishi muayyan ijodkorlar misolida tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: monolog, dialog, estetik munosabat, badiiy mahorat, ifoda uslubi.

Аннотация. В статье теоретически обобщаются природа диалога и монолога в поэзии, влияние художественных речевых форм на поэтическую структуру поэзии. На примере отдельных исполнителей анализируются отношения автор-текст-читатель, создающие художественную коммуникацию в лирике.

Ключевые слова: монолог, диалог, эстетическое отношение, художественное мастерство, манера выражения.

Annotation. The nature of dialogue and monologue in poetry, the influence of literary speech forms on the structure of poetry is depicted in the article. The author-text-reader relationship that creates literary communication in lyrics is analyzed on the example of certain poems.

Keywords: monologue, dialogue, aesthetic attitude, literacy skill, expressive style.

Kirish va dolzarbliqi. Ma'lumki, lirik nutqda grammatik nutq qurilishi dramatik va epik nutqqa nisbatan tubdan farq qiladi. Epik va dramatik nutqda gapning grammatik qurilishi nisbiy ma'noda bo'lsa-da jonli nutqqa yoki tilning grammatik qoidalariga muvofiqroq bo'ladi. Unda ega, kesim, ikkinchi darajali bo'laklar o'z joyida bo'lishi talab qilinadi. Lirik nutqdagi grammatik qurilish masalasi V.Vinogradov to'g'ri ta'kidlaginidek, haqiqatdan o'ta murakkab. Bunday murakkablik she'riy nutq murakkabligini oshiribgina qolmay, u bilan bog'liq kommunikatsiya jarayonlarini ham murakkablashtiradi. Ta'kidlash lozimki, she'riy nutq spetsifikasi uchun grammatik buzilishlar tor ma'noda xarakterli holat. Bunday "buzilishlar" she'riy nutqning asosiy xususiyatlaridan biri bo'lgan ohangdorlikni oshirishi bilan birgalikda estetik ta'sir quvvatining ham oshishiga xizmat qiladi. Shu nuqtayi nazardan she'riy nutqning kommunikativ effekti nasriy yoki dramatik asarlarnikidan keskin farq qiladi. Hissiyotlarni qo'zg'aydi, o'yga toldiradi, yig'latadi. Shu narsani alohida ta'kidlash lozimki, janriga ko'ra epik turga mansub, ammo she'riy yo'lda yozilgan she'riy roman, dramatik doston, she'riy drama, doston, manzumalar ham aynan she'riy ifodaga qurilgani uchun grammatik qoidalarning lirikaga mansub nutq shakllarini qo'llashga majbur bo'ladi.

Metodlar va o'rganilish darajasi. Lirik subyekt va obyekt muammosi va uning o'ziga xos xususiyatlari haqida jahon adabiyotshunosligida yaratilgan bir qator ilmiy tadqiqotlarida she'riy janrlarga xos poetik shakllanishning ichki va tashqi omillari, taraqqiyot tamoyillari va poetikasi bo'yicha boy tajriba to'plangan va muayyan natijalarga

erishilgan. She'riy nutq XX asr boshlarida adabiy jarayon umumiy rivojlanish bosqichlari kesimida asoslanib, lirik subyekt va obyekt hamda uning dialogik tasvir usuli, takomili aniqlangan. Shunday bo'lsa ham jahon adabiyotshunosligida she'riyat poetikasi muammosini adabiy jarayon kontekstida umumlashtirish ilmiy-nazariy ehtiyoj hosil qiladi. XX-XXI asrlar she'riyati ilmiy-nazariy tafakkur tajribasi, adabiy-estetik maktablar an'analari, milliy lirika poetikasida mavjud ijodiy konsepsiyalar, ifoda uslubi, badiiy nutq taqvimini, rivoya texnikasi tizimi, ilg'or shakliy-uslubiy tafovutni aniqlashga mustahkam zamin hozirlaydi.

V.Vinogradov she'riy nutqda har bir avlod, har bir individual shoir o'zigacha bo'lgan uslub qoidalarini buzish orqaligina yangilik kashf etganlarini ta'kidlab ko'rsatadi. Shuningdek, badiiy detalning "muallif obrazi" shakllanishi va takomilida muhim ahamiyat kasb etishi haqida salmoqli bir fikrni o'rtaga tashlaydi: "Muallif (N.Uspenskiyning "Noma'lumning kundaligidan" asari haqida gap ketyapti, S.M.) Turgenev va Grigorovichga o'xshab, ko'rgan eshitganlaridan paydo bo'lgan o'z kayfiyati haqida bir og'iz ham gapirmaydi. N.Uspenskiy bitta jumla bilan hikoyanavisning og'ir o'ylarini keng tasvirlashdan qutuladi. Qahramon qishloqdan tashqari chiqib, atrofqa qaraydi: "Tog' ustida xuddi ko'z yoshiga cho'milgandek bo'lib yomg'irdan bo'kkan daraxt turardi..." Rutubatli borliqdan olingan bir detal tasviridan birbutun, mukammal obraz paydo bo'ladi" [5, C.35]. Bunday badiiy priyom V.Vinogradov tomonidan nasriy asar namunasi misolida ko'rsatilgan bo'lsa-da, uning she'riy asarga ham xos ekani aniq.

She'riyatda nutq shakllari masalasi rus va boshqa xalqlar adabiyotshunosligida muayyan darajada tadqiq etilib, dissertatsiya va maqolalarda ilmiy jihatdan umumlashtirilgan. O'zbek adabiyotshunosligida she'riyatda dialog va uning talqin xususiyatlari borasida hozirga qadar yirik ilmiy tadqiqot bajarilmagan. Adabiyotshunos B.Sarimsoqov tomonidan A.Navoiy lirikasida g'azallardagi muloqot shakllari bo'yicha e'lon qilingan maqolada janr tabiati hamda muloqotning vujudga kelish omillari ilmiy tahlil qilinadi [10, C.8,12]. Shuningdek, professor H.Boltaboyevning "XX asr adabiyotshunosligida dialogizm va Mixail Baxtinning adabiy-estetik ta'limoti" [2, C.8,14], A.Qozixojayevning "G'azalning serovoz olami" [12, C.4] maqolalarida dialogning tarixiy tadriji, xususan, nazmda tutgan o'rni ilmiy-nazariy asoslanadi.

Tadqiqot natijalari. She'riy parchani umumiy holatda, nisbiy mustaqil badiiy matn deb olsak, u mustaqil holatida badiiy nutq yoki she'riy nutqni tashkil etadi. Uni metaforalar tizimida tahlil etganimizda esa dialog badiiy nutqning muhim komponenti sifatida namoyon bo'ladi. Bunda, A.A.Potebnya haqli qayd etganidek, qism orqali butunni tushuntirish, badiiy talqin etish, poetik dialogizatsiya maydonga keladi. V.Jirmunskiy A.Potebnya lingvistik, falsafiy, psixologik tarzda tushuntirgan ushbu masalani sof lingvopoetik nuqtayi nazardan tahlil etadi. Masalan, olimning she'riy kompozitsiyaga doir kuzatishlari lirik matnda ro'y beradigan dialogik jarayonlarning lingvistik nuqtayi nazardan talqin etishi, lingvopoetik dialogizatsiyaning intensiv jarayonlarini badiiy nutq

doirasida tahliliy asoslashi bilan diqqatga sazovor. “She’riy kompozitsiya qurilishi faqat ritm yoki urg‘ularning tizimli komponentlar hosil qilinishi bilan emas, ularning o‘zaro lingvistik munosabati orqali, sintaktik guruhlar bilan chambarchasligi bilan ham belgilanadi. Bunda gap, gap bo‘laklari, gapdagi ibora, gapdagi so‘z, so‘z bo‘laklari, harf va tovushlar vositasida ma’no ko‘chishi yuz beradi” [7, C.151,152]. Umuman, she’riy so‘z yoki she’riy nutq muayyan kompozitsion tizim hosil qilgandagina butun poetik tekst sifatida A.Potebnya qayd etgan dialogik jarayonlarni maydonga keltiradi. Uning ta’sir kuchi, matn ichi va matn tashqarisidagi dialogik vazifasi aynan kompozitsion butunlik hosil qilishi bilan bog‘liq. Bunda gapdan harf va tovushlarga, harf va tovushlardan gapga tomon doimiy harakatlanib turuvchi dialog hosil qiluvchi vositalar “men” va “boshqa” o‘rtasidagi munosabatning mukammal chiqishini ta’minlaydi.

Rus nazariy poetikasining asoschisi A.A.Potebnya so‘z faoliyatini ikki tipga ajratgan: A) poeziya tili; B) proza tili. Potebnya bu yerda masala mohiyatini yiriklashtirib, umumlashtirib tushunadi. Proza tili deganda, umuman so‘zlashuv tilini nazarda tutadi. Bundagi asosiy maqsad tushuncha berish ekanini qayd etadi. Poeziya tili deganda esa badiiy nutqni tushunadi. Poeziya tilining maqsadi sifatida undagi obrazlilikka urg‘u berar ekan, bu tipning estetik ta’sirini diqqat markazida tutadi. Olimning tushuntirishicha, ikkinchi tip uchun vosita bo‘lgan til faktida tilning amaliy maqsadi chetga chiqib turadi. U endi dialogik munosabatlarni faol hosil qiluvchisi sifatida poetik nutqqa aylanadi [9, C.121]. V.Jirmunskiyning fikriga ko‘ra “Ritorika tili poeziya tiliga yaqin. Amaliy va ilmiy til esa poeziya tilidan uzoq. Amaliy va ilmiy til amorflashgan, ya’ni bir ma’noni ifodalovchi bo‘ladi. Unga hayotiy, ilmiy mantiqiylik xosdir” [8, C.24]. Albatta diqqat qaratish joizki, V.Jirmunskiyning ritorika bilan bog‘liq fikrlari Aristoteldan ko‘chgan an’ana bo‘lishiga qaramasdan, uning mantiq masalasidagi xulosasi Aristotel badiiy mantiqidan farq qiladi. Aristoteldagi singari badiiy yoki umumiy mantiqni emas, to‘g‘ridan to‘g‘ri ilmiy yoki hayotiy mantiqni bildiradi. V.Jirmunskiy fikricha, “She’riy nutqqa xos poetik priyomlarni tizimli o‘rganish, she’rshunoslik nazariyasini haqiqiy vazifasiga tomon izchil tarzda olib boradi” [8, C.28]. She’riy priyomlarning eng kichik va asosiy birligi bo‘lgan tovushlar faqat alliteratsiya yoki ritmiko-sintaktik garmoniya emas, badiiy dialogning o‘ta murakkab shaklini ham maydonga keltiradi. Olim tovush poetikasini shu nuqtayi nazarga ko‘ra uch asosiy guruhga ajratib tasniflaydi:

A) ritm hamda vaznni unli va undosh tovushlarning sonlari orasidagi navbatmanavbat kelish tengligi orqali ta’minlanishi;

B) tovushlarning sifatli tarzda joylashtirilishi;

V) tovushlar intonatsiyasi [8, C.65].

Demak, she’riy nutq hosil qiluvchi vositalarning eng kichik struktur birligi bo‘lgan tovush masalasi (fonetika)dan kelib chiqilmas ekan, she’r kompozitsiyasining tashkillanishi va mazmunning izchil ifodasiga erishib bo‘lmaydi. Tovushlarning ritmiko-sintaktik uyg‘unligi she’riy asar matnida muayyan tovushlar alliteratsiyasi orqali hosil

qilinadigan sintaktik uzviylik dialog hosil qiluvchi vosita sifatida namoyon bo'lishi kuzatiladi. She'riy kompozitsiya ichidagi sintaktik munosabat, bog'lanish, mazmun nuqtayi nazaridan bir-birini taqozo etish, M.Baxtin aytgan dialogik munosabatning matn ichida voqe bo'lishi bilan bir xil xususiyatga ega. Jirmunskiyga ko'ra she'riy matn ichidagi sintaktik bog'lanishlar gap, gap bo'laklari, gapdagi ibora, so'z bo'laklari vositasida ma'no ko'chishi hodisasini yuzaga keltiradi. Olim ushbu hodisani fransuzcha *enjambement* termini bilan nomlaydi. Lirik matnda *enjambement* hodisasining turli shakllari uchrashi mumkin. Birinchi holatda sintaktik taqsimot turoqlar taqsimoti bilan muvofiq kelishi mumkin; ikkinchi holatda ritmik bo'linish sintaktik bo'linishga mos kelmasligi mumkin; uchinchi holatda she'r matni ichida sintaktik pauza kelishi mumkin bo'lib, buning ikki turi mavjud: a) sintaktik pauza she'r ichida oldingi satrdan kelayotgan gapni tugatadi; b) keyingi gapni oldingi satr ichida boshlab beradi; nihoyat, to'rtinchi holatda she'rdagi qofiya yoki radifdan oldingi so'zdan boshlab, sintaktik bo'linish yuz beradi, bunda fe'l otdan yoki ega-kesimdan ajralib chiqadi.

V.Jirmunskiy tomonidan she'rshunoslikka olib kirilgan ushbu hodisani o'zbek adabiyotshunosi, filologiya fanlari doktori, professor Bahodir Sarimsoqov keyinchalik Alisher Navoiy lirikasiga muvofaqiyatli tatbiq etdi. Lirik asarlarni lingvopoetik tadqiq etish o'zbek adabiyotshunosligida nisbatan kam kuzatiladigan hodisa bo'lib, B.Sarimsoqov o'z tadqiqotining boshlanma qismida bu haqda shunday yozadi: "Poetik sintaksis masalalari o'zbek adabiyotshunosligida juda zaif o'rganilgan ilmiy sohadir. Holbuki, poetik nutq va uning shakllari, badiiy kechinmaning ifodalanishida ijodkorning mahorati nazariy poetikaning dolzarb muammolarini tashkil etadi. Chunki badiiy so'z san'atida favqulodda poetik fikr kashfiyoti qanchalar muhim bo'lsa, ana shu fikrni o'ziga xos tarzda ifodalash ham shunchalar ahamiyatli. Mana shu ikki jihatning, boshqacha aytganda, shakl va mazmunning uyg'unligi azal-azaldan adabiyot nazariyasida yetakchi mavzu sanalib keladi" [11, C.6]. B.Sarimsoqov muammoning shu qadar keng qamrovli ekanini his etib, quyidagi fikrni bayon etadi: "Demak, g'azaldagi eng kichik apperseptiv o'choq hisoblanmish baytning ham poetik sintaktik tabiatida juda ko'plab usullar, poetik figuralar mavjud. Biz ulardan biri – baytning birinchi misrasidagi fikrning ikkinchi misraga ko'chishi, ya'ni *anjambeman* – *fikriy ko'chuv hodisasi* haqida to'xtalamiz" [11, C.8]. Olim o'z maqolasini V.Jirmunskiy terminini bir oz o'zgartirib "anjambeman" tarzida qo'llaydi. Bu bilan terminning talaffuz etilish va yodda qolishi uchun o'quvchida qulaylik tug'diradi.

Xuddi shu hodisaning o'zbek she'riyatida ham yorqin namunalari ko'plab uchraydi. Alisher Navoiyning mashhur:

Ko'zing ne balo qaro bo'libtur –

Kim, jong'a qaro balo bo'libtur... [1, C.8].

matla'sida tovush poetikasining individual va o'ta murakkab ko'rinishiga duch kelamiz. Matla' qo'shqofiyali bo'lib, birinchi misradagi "balo qaro" ikkinchi misradagi

“qaro balo” bilan mukammal qofiyani tashkil etgan. “Bo‘libtur” esa matla’ radifi vazifasini bajargan. Bu baytning tashqi tuzilishi. Tashqi tuzilishning bunday mukammallik kasb etgani baytga haddan ortiq mukammallik, ohangdorlik bag‘ishlaydi. Baytdagi sintaktik markaz vazifasini bu yerda “ko‘z” so‘zi bajaryapti. Ammo bu so‘z boshqa so‘zlar bilan ritmik munosabat tashkil etishi jihatidan unchalik faol emas. U bilan fonetik jihatdan parallellik hosil etgan so‘zlar baytda boshqa uchramaydi. Ammo bayt sintaktik tizimida bu so‘zning o‘rni juda katta. Baytda *enjambement* hodisasini maydonga keltiruvchi asosiy ritmiko-sintaktik komponent ham aynan shu “ko‘z” so‘zi bo‘lib hisoblanadi. Birinchi misrada bu so‘z ochiq kelgan, to‘g‘ridan to‘g‘ri “ko‘z” so‘zi tilga olingan. Ikinchi misrada esa bu so‘z ochiq-ravshan, grafik ifodada aks ettirilmagan bo‘lsa-da, jonga ofat soluvchi “qaro balo” sifatlashi aynan ko‘zga tegishli. Klassik tildagi “kim” qo‘shimchasi grammatik nuqtayi nazardan zamonaviy uslubdagi “ki”ni bildiradi. Ammo bu baytda “ya’ni” ma’nosida kelgan. “Kim” bog‘lovchi qo‘shimcha sifatida ikkinchi misrada “ko‘z” so‘zining vazifasini bajargan. Natijada, ikkinchi misra birinchi turog‘ining boshidan e’tiboran *enjambement* hodisasi yuz bergan. Baytdagi fonetik tizimning hosil bo‘lishi, ritmiko-sintaktik garmoniyaning yuzaga kelishini “o” tovushi ta’min etgan. “Balo”-“qaro”, “qaro”-“balo” juftliklarida aks etgan bu tovush ikki misra ichida tizimli takrorlanishi natijasida ma’shuqa ko‘zining qaroligi, oshiq joniga shu qarolik ishq otashini solgani, oqibat uni balolarga giriftor etgani haqidagi lirik holatni ifodalagan. Ayni paytda bu ikki juftlik ham ma’shuqaga murojaat mazmunini ifodalaydi. Bayt “ko‘zing” so‘zi bilan boshlangan bo‘lsa-da, so‘zdagi egalik qo‘shimchasi (ing) uning oldida “yor”, “dildor”, “dilorom”, “go‘zal”, “parizod” singari ma’shuqani sifatlovchi so‘zlar borligidan dalolat beradi. Baytda aks etgan bunday murojaat tipi uning birinchi misraning ilk komponentidayoq dialogik mohiyat kasb etganini ko‘rsatadi.

Zamonaviy o‘zbek she’riyatida O‘zbekiston xalq shoiri Erkin Vohidovning “Qaro qoshing...” deb boshlanuvchi she’ri Navoiy va Bobur an’analarining uzviy davomi sifatida lirik asardagi tovushlar garmoniyasining noyob namunasi bo‘lib hisoblanadi.

Qaro qoshing, qalam qoshing,

Qiyiq qayrilma qoshing, qiz.

Qilur qatlimga qasd qayrab,

Qilich qotil qaroshing qiz.

Qafasda qalb qushin qiynab,

Qanot qoqmoqqa qo‘ymaysan.

Qarab qo‘ygil qiyo

Qalbimni qizdirsin quyoshing qiz [6, C.36].

She’riy nutqning bu shakli faqat o‘zbek she’riyatida emas jahon xalqlari she’riyatida ham siyrak uchraydi. Rus she’riyatida simbolistlar, futuristlar, avangardistlar bu borada muayan tajribalar qilganlari kuzatiladi. E.Vohidov, A.Oripovlar avlodiga mansub

Y.Yevtushenko she'riyatida ham bu tipdagi she'rlarning ayrim namunalari uchraydi. Butun boshli she'rni yagona harf bilan boshlanuvchi so'zlar tizimiga qurish shoirdan ulkan mahoratni talab qiladi, albatta. E.Vohidovning mazkur she'ri eksperimental biografiyaga ega emasligi she'r ohangi va mazmunning tabiiy oqimidan aniq bilinadi. She'rda birgina tovush – “q” butun boshli kompozitsion tizimda fonetik dominantlikni tashkillashtirib, boshqarib turadi. Bu she'r ham Navoiy she'rlaridagi singari yorga murojaat tarzida qurilgan. Satrdan satrga murakkablashib, balandlashib boruvchi ohang ham aynan “q” undoshi ishtirokida vujudga keladi. 1-satrdan qosh tasviri keladi: qaro, qalam so'zlaridagi “q” tovushi qoshni tavsiflab keladi. 2-satrdagi: qiyiq, qayrilma so'zlari tavsif qamrovi hamda ta'sir kuchini yanada oshirishga xizmat qiladi. O'z navbatida, birinchi satrdagi “qosh” so'zi bilan ritmik-sintaktik aloqaga kirishib, she'r kompozitsiyasidagi umumiy fonetik alliteratsiyani tashkil etuvchi, boshqa satrlardagi markazlashtiruvchi so'z “qosh” va “q” undoshi o'rtasidagi semantik munosabatni bog'lovchilik funksiyasini bajaradi. 3-satrdan boshlab, shoir detal (qosh) tavsifidan shu detalning faoliyati tasviriga o'tadi. Qoshning mukammal tavsifi uning oshiq qatliga qasd qayraganini mantiqiy asoslaydi. 4-satrdagi “qilich qotil qaroshing” tarzidagi qosh tavsifida uning ham shakli, ham jon olarlik darajada nafisligi, ayni paytda ko'zga bergan fiziologik effekti, qarashning jon oluvchilik sifatini kuchaytirgani lirik talqin etilganini ko'ramiz. 5-satrdan lirik tasvir obyektivi ma'shuqa qoshi vositasida oshiq qalbiga ko'chadi. Xuddi Navoiy baytida kelganidek, jonga balolik funksiyasi bu she'rda ko'zga emas, qoshga yuklanadi. 6-satrdan “Qafasda qalb qushin qiynab” satri orqali oshiqning holati to'g'risida tasavvur hosil qilgan muallif, 7-satrdan qanot, qoqmoq va qo'y-maysan – bir ot, ikki fe'l birikuvi orqali yana qoshning o'ziga xosligini tavsiflab ketadi. Agar 4-satrdan qoshni qilichga o'xshatgan bo'lsa, yettinchi satrdan alliteratsiya vositasida harakatni, ya'ni qushning qanot qoqishi bilan qoshning harakati, chimirilishini tasvirlash orqali psixologik parallelizm hosil qiladi. Lirik “men” tomonidan aytilgan bu gap o'quvchi – “boshqa”da mantiqiy assotsiatsiya uyg'otib, qushning qanot qoqishidagi bezovtalik bilan qosh chimirilishidagi ma'shuqa istig'nosini solishtirish imkonini tug'diradi. Oxirgi, 8-satrdan lirik “men” yoki oshiq ma'shuqaga to'g'ridan to'g'ri murojaat etish bilan maqsadini ayon qiladi. Ma'shuqaning bir nigohiga tashna ekanini bildiradi. Shu tariqa birgina jumlada ifodalanishi mumkin bo'lgan oshiqning dil izhori “q” tovushi hosil etgan garmoniya tufayli dialogik nutqqa aylanadi. Muallif “men”i, lirik “men”, ma'shuqa “men”i, o'quvchi “men”idan iborat to'rt subyekt o'rtasidagi dialogik muhitning maydonga kelishiga olib keladi. Natijada, she'rning lirik tasvir va talqin doirasi o'z-o'zidan kengayganidek, uni qabullash jarayonidagi lirik mushohada maydoni ham retsepsiyaning katta maydoniga chiqadi. She'rdagi belgilar tizimi lirik matn tarkibida tabiiy ravishda simvolik tizimga aylanadi.

V.Vinogradovning xulosasiga ko'ra, grafik belgi yoki harf matn ichidagi harakatsiz bir bo'lak, xolos. Qachonki, u badiiy nutq tarkibini tashkil etuvchi tizimning bir bo'lagiga aylanar ekan, simvol yoki metaforik mohiyat kasb eta boshlaydi: “Simvol, shunchaki belgi

bo'lishi mumkin emas, chunki u har qanday holatda ham ikki bo'lakli struktura, shuning uchun ham u ko'p ma'noli, yuksak ahamiyatlidir" [5, C.6] – deya, ta'kidlaydi olim. E.Vohidovning tahlil etilgan she'rida ham xuddi shu holat kuzatiladi. Belgi sifatida "q" harfini ifodalaydigan fonetik birlik, ma'shuqaning qoshi tavsiflanayotgan she'r strukturasida qoshning qoralik, quyuqlik, qiyiqlik, qilichlik, qotillik singari vazifalarini nafis urg'ulashi bilan timsoliy va ko'pma'noli mohiyat kasb etgan.

V.Vinogradov badiiy nutqning maydonga kelishi bilan bog'liq beshta muhim belgini ajratib ko'rsatgan. Bunda faqatgina she'riy nutqqa xos belgilarni emas, asosan epik va lirik nutqqa doir materiallardan kelib chiqqani tabiiy hol. Ammo olimning badiiy nutqqa doir kuzatuv, tahlil va tasniflarini chuqur kuzatadigan bo'lsak, uning rus akademik maktabiga xos muayyan an'analarga tayangani, o'z tasnifini shu asosda davom ettirgani aniq bilinadi. "Adabiy-badiiy asar strukturasini tahlil qilishdagi eng katta qiyinchilik hali tadqiqot sferalarida u qadar aniqlashtirilmagan uchta turda uchraydi. Bular: badiiy obyekt grammatik strukturasini tadqiq etish sferasida; obrazli nutq sferasida; "muallif obrazi", "hikoyanavis obrazi" va personajlar obrazi nutq qurilishini tahlil etishda" [5, C.47]. Olim yuqorida qayd etganimiz besh belgini uch sferada ko'radi. Grammatik struktura; obrazli nutq; "muallif obrazi", "hikoyanavis obrazi" yoki personajlar obraziga xos nutq shakllari umuman olganda dramatik nutqqa ham xos. Shu nuqtayi nazardan badiiy nutqni bu tarzda beshga ajratish har uch tur doirasida ham o'zini oqlaydi. V.Vinogradov lirik nutqqa xos yana bir muhim shaklni qayd etadi: "Qachonki asar qatlariga ijrochi (artist, o'quvchi, deklamator) obrazi kirib kelar ekan, asardagi "muallif obrazi" deformatsiya (shakl o'zgarishi yoki obraz ikkilanishi)ga uchraydi" [5, C.35]. Bunday shaklni istalgan boshqa millat she'riyatida, istalgan adabiy oqim, ijodiy metodga mansub shoirlar ijodida, muayyan individual shoir asarida uchratishimiz mumkin. Muallif obrazining deformatsiyaga uchrashi va bu holatning yagona ko'rinishga ega emasligi V.Vinogradov qayd etgan masalaning o'ta kengligidan dalolat beradi. Bu yerda lirik "men" yoki obraz ikkilanishining asosida turadigan muallif "men"ini A belgisi bilan belgilab oladigan bo'lsak, bu ikkilikni tashkil etuvchi yarim muallif. Yarim lirik "men", yarim boshqa obrazlarni biryo'la B... V... G... D... va h.k. tarzida izchil davom ettirishimiz mumkin.

Erkin Vohidov "Lirik qahramon" degan she'rida o'quvchining "Men deb yozar shoir doimo, Kim ekan u shoirning meni?" savoliga javoban "Sen o'zingsan shoirning meni" tarzida javob bergan edi. Albatta, she'r ijod qilayotgan shoir faqat o'z subyektini kuylamaydi. U hayotdagi murakkab voqealar ichidan o'z hissiyotiga ta'sir etganlarini mohir zarshunos kabi ajratib oladi. Bu voqea ortida esa albatta biror inson, boshqacha aytganda o'quvchilardan biri yoki bir qanchasi turadi. Shunday ekan, boshqalar dardini kuylayotgan shoir "men"i "boshqa" "men"i bilan qo'shib ketadi. Bunday holat aksariyat she'riy asarlar uchun xos bo'lishi mumkin. V.Vinogradov qayd etgan holatda esa masala birmuncha ravshanroq. Asardagi nutq maromi ichiga aniq-tiniq ravishda boshqa bir obraz kirib keladi. Uni ba'zan muallifning o'zi "dedi", "so'zladi", "so'z aytdi" singari so'zlarni

berish orqali izohlaydi. Boshqa bir holatlarda muallif kirib keluvchi obrazni o'quvchiga bildirmasligi, hatto yashirishi ham mumkin. Ammo har qanday holatda ham she'riy nutqqa xos bo'lgan bunday hodisa V.Vinogradov aytmoqchi muallif obrazi, "men"i "deformatsiyasi"ga olib keladi. She'riy nutq tarkibida ba'zan monologning o'zi dialog yuzaga kelishini ta'minlaydi. Natijada, she'rdagi umumiy nutq maydonida deformatsiya hodisasi kuzatilyapti. "Uslub predmeti shunchaki tashqi shakl emas, deb yozadi Y.Borev, – u birinchi navbatda madaniyatning ichki formasiga xos moddiy va ruhiy xarakteridir. Boshqacha aytganda uslub predmet yoki hodisaning funksional o'ziga xosligini anglatadi" [4. C.186]. Bu xulosa faqat yuqorida keltirilgan she'riy misollargagina emas, umuman badiiy matn deb atash mumkin bo'lgan, uslubiy jihatdan to'la shakllangan barcha matnlarga xos. M.Baxtinning fikricha, "Har bir matn o'z subyektiga, muallifi (gapirayotgan, yozayotgan)ga ega. Mualliflikning turli shakllari va ko'rinishlari bo'lishi mumkin... Bularning hammasida muallifning alohida ko'rinishi, keltirgan misollari, alohida mualliflik mas'uliyati (bu o'rinda ikkinchi subyekt ham bor) bilan amalga oshirgan tajribalari muhimdir. Gumanitar tafakkur alohida ikkilangan yoki ikki subyektga aloqador... Muallifni biz har qanday san'at asarida uchramiz (qabul qilamiz, tushunamiz, his qilamiz va idrok etamiz). Masalan, rangtasvir asarida biz doimo muallifni his qilamiz, lekin biz uni ko'rmaymiz. Faqat u tasvirlagan badiiy obrazlarnigina ko'ramiz. Biz uni hamma o'rinda tasvirlangan (ko'ringan) obraz deb emas, sof tasvirlanayotgan boshlanma (tasvirdagi subyekt) deb his qilamiz" [2, C.157]. Bu holat barcha san'at turlariga tegishli bo'lib, so'z san'atida yorqinroq namoyon bo'ladi. V.Vinogradov, V.Jirmunskiy, Y.Borevlar ta'kidlaganidek, ikki yoki undan ortiq subyektlarning badiiy nutq tarkibida garmoniya hosil etishi natijasida nutqiy dialogning o'ta murakkab ko'rinishi hosil bo'ladi. Bir so'z bilan aytganda she'riy nutq deyarli subyektlararo muloqotga quriladi. Garchand biz ko'p hollarda muallif subyektini lirik qahramon subyektidan ajrata olmasak-da aynan shu subyektlararo muloqot bizga estetik ta'sir ko'rsatadi. Ruhiyatimizga stetik assotsiatsiya beradi, muallif, lirik qahramon va bizning o'rtamizdagi badiiy kommunikatsiyani vujudga keltiradi.

Xulosalar. Umuman, badiiy nutq tarkibiga ko'ra ko'plab ichki komponentlarga ega. Uning boshqa mustaqil shakli bo'lgan she'riy nutq esa qator individual xususiyatlarni namoyon etishi bilan o'ziga xosdir. Lirikada badiiy muloqotni belgilash ijodkor muddaosi va fikr yuritish malakasi jipslashuviga tayanadi. Muallifning monolog hamda dialogdan foydalanish darajasi tasavvurni muayyan nuqtaga yig'ish, ruhiy holat manzarasi tahlilini teranlashtirish va poetik jarayon imitatsiyasini shakllantirish imkonini beradi. Holat drammatizmi ustuvorligi she'riyatda nutq tiplari qorishuvini taqozo etgan holda tasvir hamda ifoda muttasil o'rin almashinuvi rivoya texnikasini yordamchi estetik vositaga aylantiradi. Aslida matnda munosabat, munozara, tahlil va talqin ijodiy munosabatga kirishadi. Jonli nutq, badiiy nutq, xususan, she'riy nutqda so'zlashuvning javob talab etadigan yoki badiiy tugalligini anglatadigan uchta omil kuzatiladi:

1. Predmetli-fikriy tugallikka ega.
2. Nutqiy niyat yoki gapiruvchining soʻzlash erkinligi.
3. Tugallikning tipik kompozitsion-janriy shakli.

Ushbu tasnifdagi uchinchi faktor bevosita poetik nutq jarayonlariga tegishli. Ayni paytda bu nutqning janriy shaklidir. Ayni shakl inson ona tilini tabiiy holatda oʻrganganidek, grammatik qoidalar majmuyini oʻzlashtirish orqali emas, tabiiy holatda, nutqiy jarayonlar ichida maydonga keladi. Demak, nutqiy janrlar, jumladan, lirik janrlar ham shu jarayon hosilasi boʻlib hisoblanadi. Har bir gap, jumla, satr faqat nutq jarayonidagi faol komponentga evrilib faollashadi. Bunda fikr-mulohaza, nutqqa nisbatan tasdiq, inkor yoki boshqa shakldagi muayyan munosabatning hosil boʻlishi poetik nutq dialogizatsiyasini tashkil etadi.

Sheʼriy nutq jarayonida lirik nutq va uning ichida keladigan dialogni metaforalar tizimi sifatida qarash maqsadga muvofiqdir. Bunda qism orqali butunni, butun vositasida qismni anglash prinsipi muhim ahamiyatga ega. Metaforalar tizimi sheʼriy shaklni, sheʼriy shakl ichidagi ritmik-sintaktik birliklar oʻrtasidagi poetik aloqadorlik esa oʻz navbatida poetik dialogizatsiyani vujudga keltiradi. Sheʼriy matnning eng kichik birligi boʻlgan tovush poetik nutqda faqat alliteratsiya hosil etuvchi ritmik-sintaktik garmoniyagina emas, balki badiiy dialogning oʻta murakkab shaklini bunyod etuvchi murakkab tizimli badiiy nutq komponenti boʻlib hisoblanadi. Sheʼriy nutq hosil qiluvchi vositalarning eng kichik strukturaviy birligi tovush masalasi (fonetika)dan kelib chiqilmas ekan, sheʼr kompozitsiyasining tashkillanishi va mazmunning izchil talqiniga erishish mumkin emas. Chunki ushbu komponent vositasidagina lirik tasvir va talqin doirasi oʻz-oʻzidan kengayadi, badiiy retsepsiya jarayonida lirik mushohada maydoni ham kengayadi.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. Алишер Навоий. Қаро кўзим. – Тошкент: Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1988.
2. Бахтин М. Тилшунослик ва бошқа гуманитар фанларда матн муаммоси. Фалсафий таҳлил тажрибаси. Рус тилидан Ҳ.Болтабоев таржимаси // Филология масалалари. – Тошкент, 2016. – №4.
3. Болтабоев Ҳ. XX аср адабиётшунослигида диалогизм ва Михаил Бахтиннинг адабий-эстетик таълимоти // Филология масалалари. – Тошкент, 2016. – № 4.
4. Боров Ю. Эстетика. – Москва: Издательство политической литературы, 1981.
5. Виноградов В.В. О теории художественной речи. – Москва: Высшая школа, 1971.
6. Воҳидов Э. Муҳаббат. Шеърлар. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1982.
7. Жирмунский В.М. Теория стиха. – Ленинград: Советский писатель, 1975.
8. Жирмунский В.М. Теория литературы. Поэтика. Стилистика. – Ленинград: Наука, 1977.
9. Потебня А.А. Теоретическая поэтика. – Москва: Высшая школа, 1990.
10. Саримсоқов Б. Алишер Навоий лирикасида ғазал-мулоқот шакллари // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2004. – №4.
11. Саримсоқов Б. (2001) Алишер Навоий поэтик синтаксисидagi бир усул хусусида // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2001. – №2.
12. Қозихўжаев А.) Ғазалнинг серовоз олами // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. –Тошкент , 2009. – № 49.